

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**



**OLIIY TA'LIM PEDAGOGIKASI
FANINING O'QUV DASTURI
(1-kurs)**

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim

**Magistratura
Mutaxassisligi:** 70110102- Pedagogika va psixologiya

Jizzax – 2022

<p>6. Oliy ta'limning davlat ta'lim standard, asosiy qoidalar. Oliy ta'lim to'plami, — T.: 2001.</p> <p>7. Oliy ta'limning yo'nalishlari ua mutaxassisliklari klassifikatori. Oliy ta'lim to'plami, — T.: 2001.</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.zivonet.uz. 2. www.edu.uz. 3. www.google.uz. 4. www.gov.uz. 	<p>9. Fanning o'quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashining 202__yil “__” __dagi __-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan.</p>
<p>10. Fan/modul uchun ma'sullar: Rahmatova F - Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dots</p>	<p>11. Taqrizchilar: R.Yormatov - JDPU Magistratura bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent N.S.Qiyomov - Samarqand davlat universiteti, Pedagogika kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)</p>

1.	<p>Fan/Modul kodi 3510TP104</p> <p>Fan/Modul turi Tanlov fan</p>	<p>O'quv yili 2022-2023</p> <p>Ta'lim tili O'zbek</p>	<p>Semestr II</p>	<p>Kreditlar 4</p> <p>Haftadagi dars soatlari 4</p>																					
	<table border="1"> <tr> <td>Oliy ta'lim pedagogikasi</td> <td>Hammasi</td> <td>Jami auditoriya</td> <td>Ma'ruza</td> <td>Amaliy</td> <td>Seminar</td> <td>Mustaqil ta'lim</td> </tr> <tr> <td>2-semestr</td> <td>120</td> <td>60</td> <td>30</td> <td>30</td> <td>-</td> <td>60</td> </tr> <tr> <td>Jami</td> <td>120</td> <td>60</td> <td>30</td> <td>30</td> <td></td> <td>60</td> </tr> </table>	Oliy ta'lim pedagogikasi	Hammasi	Jami auditoriya	Ma'ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta'lim	2-semestr	120	60	30	30	-	60	Jami	120	60	30	30		60			
Oliy ta'lim pedagogikasi	Hammasi	Jami auditoriya	Ma'ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta'lim																			
2-semestr	120	60	30	30	-	60																			
Jami	120	60	30	30		60																			
2.	<p>I.Fanning mazmuni Fanni o'qitishning maqsadi – Uzlaksiz ta'lim tizimi muassasalari uchun kadrlar tayyorlashda ilg'or pedagogik texnologiyalar alohida ahamiyatga ega. O'quv yurtlari amaliyotida ta'limning yangi pedagogik texnologiyalari va interfaol usullarini qo'llash shu kunning dolzarb muammosiga aylandi.Oliy ta'lim pedagogikasining me'yoriy hujjatlarini talabalarga o'rgatishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – fanning tarmoqlari, fanning predmeti, metod va metodologiya, ta'limni faol metodlari, nazariy va amaliy fanlarni o'qitishning metodik xususiyatlari haqida tasavvurlarga ega bo'lishi kerak; -talaba o'quv faoliyatini tashkil qilish, boshqarish, faol metodlar, o'quv faoliyati shakllari, ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak; -talaba fanlarni o'qitishning metodik xususiyatlari, o'rta maxsus va oliy ta'limda fanlarni o'qitishning o'ziga xosligi dars jarayoniga metodlarni qo'llash, talabalarni mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish yuzasidan ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.</p> <p style="text-align: center;"><i>Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</i></p> <p>II. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Oliy maktab pedagogikasiga kirish.(2soat)</p> <p>Oliy ta'limning maqsadi, oliy maktab pedagogikasining predmeti, ob'yekti, qonuniyatlari, prinsiplari, ilmiy tadqiqot metodlari, manbalari; oliy ta'lim sohasida O'zbekiston davlati siyosatining asosiy prinsiplari, ikki bosqichli oliy ta'lim, bakalavriat, magistratura.</p>																								

<p>7.</p> <p>VI. Kreditlarni olish uchun talablar. Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p>Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi. Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p>Yakuniy nazorat. Yakuniy nazorat yozma shaklda o'tkaziladi. Talabanning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p>	<p>8.</p> <p>VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna, Askarov Abror Davlatmirzaevich. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent-2019 2. Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxonova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M. B "Umumiy pedagogika". Toshkent — 2019 3. D.E.Toshtemirov, Ya.A.Nurumbekova, Yo.A.Faxriddinov. Umumiy pedagogika. Oliy o'quv yurtlarining barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik. Guliston-2022 <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar. 1,2-qism, — T.: 1999. 2. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning me'yoriy hujjatlari. — T.: 2001. 3. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-qism — T.: 2001. 4. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. 2-qism — T.: 2003. 5. Oliy ta'lim haqida nizom. Me'yoriy hujjatlar. 1-qism, T.: 1998.
---	---

<p>2-mavzu. Oliy ta'lim pedagogikasi — pedagogika fanining bir tarmog'i. (2soat) O'zbekistonda oliy ta'limning isloh qilinishi. Oliy ta'lim pedagogikasi pedagogikaning tarmog'i.</p> <p>3-mavzu: O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning maqsadi va vazifalari. (2soat) Ta'limning mazmuni, o'quv rejasi, o'quv fani, o'quv semestri, o'quv yili, o'quv fani dasturi. Atamalarning ma'nosi, oliy ta'limning asosiy vazifalari. Oliy ta'limning tashkiliy masalalari.</p> <p>4-mavzu: Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. (2soat) Oliy ta'lim, bakalavr, magistr. Oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom). Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, ta'lim dasturi, o'quv fanlari bloki, o'quv fani dasturi, malaka amaliyoti, yakunlovchi davlat attestatsiyasi, ta'lim sifatini nazorat qilish, oliy ta'lim muassasasi attestatsiyasi, oliy ta'lim muassasasi akkreditatsiyasi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari (asosiy qoidalar) haqida umumiy tushuncha.</p> <p>5-mavzu. Oliy ta'limning yo'nalishlari va mutaxassisliklari. (2soat) Oliy ta'limning yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori haqida umumiy tushuncha. Oliy ta'lim mutaxassislik</p> <p>6-mavzu: Oliy ta'lim muassasasi. (2soat) Oliy maktab, universitet, akademiya, institut, fakultet, kafedra, rektor, dekan, kafedra mudiri, ilmiy kengash, vasiylik kengashi. Oliy ta'lim muassasasi haqida umumiy tushuncha. Oliy o'quv yurtining fakulteti. Oliy maktabning kafedrası.</p> <p>7-mavzu: Oliy maktabning talabasi va professor- o'qituvchisi. (2soat) O'quv jarayoni, talaba, professor, dotsent, ilmiy daraja, ilmiy unvon. Oliy maktabda ta'limning maqsadi, xususiyatlari. Oliy o'quv yurtining talabasi. Oliy maktabning professor - o'qituvchisi.</p> <p>8-mavzu: Oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etish. (2soat) Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, maslahat, kollokvium, mustaqil ish, malakaviy amaliyot, kurs ishi (loythasi), malakaviy bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, kunduzgi ta'lim, sirtqi ta'lim,</p>

- 1) «**Tushunchalar tahlili**» usuli. Talabalar tushunchalarni dastlab yakka tarzda va keyin jamoada muhokama qilishadi. O'qituvchi jamoaning fikrini yo'naltirib turadi va oxirida ekranga atamalarining izohini chiqaradi. Talabalar o'z fikrlarini taqqoslashadi, baholashadi va bilimlarini mustahkamlashadi.
- 2) «**Zinama-zina**» usuli. Talabalar mavzu bo'yicha yakka tarzda fikrini grafik ifoda etishadi, keyin guruhda muhokama etishadi. Guruhlar taqdimoti o'tkaziladi va grafik materiallar doskaga mantiqiy pog'onalar tarzida ilib boriladi.
- 3) «**Charxpalak**» usuli. Kichik guruhlar o'z tarqatma materiallaridagi vazifani bajarib, charxpalak aylanishi bo'ylab bir-biriga uzatishadi, har bir guruh boshqalarning ishiga tuzatish kiritadi va oxirida o'zlariga qaytib keladi. Guruhlar o'z ishini tuzatishlar bilan takomillashtirgan holda taqdimot qilishadi.
- 4) «**Bumerang**» usuli. Talaba bajargan ishini avval o'z kichik guruhida, keyin boshqa kichik guruhda muhokama qiladi, so'ng yana o'z guruhiga qaytib kelib umumlashtiradi. Oxirida guruhlar taqdimoti o'tkaziladi.
- 5) «**Rezyume**» usuli. Kichik guruhlarda muammolar o'rganilib, tahlil qilinadi va xulosa yozma ifoda etiladi. Taqdimotda xulosa ko'rsatilmaydi, boshqa talabalarning taqdimotga nisbatan fikrlari hisobga olinib yangi xulosa shakllantiriladi va avvalgi yozma xulosa bilan taqqoslanadi.
- 6) «**Muammo**» usuli. Dastlab muammoli videolavha ko'rsatiladi. Kichik guruhlar namoyish vaqtida muammolarni qayd qilib borishadi. Keyin ularning echimlari o'zaro almashishadi va tuzatish kiritishadi. Oxirida muammo bo'yicha jamoaning xulosasi shakllantiriladi.
- 7) «**Labirint**» usuli. O'qituvchi murakkab vaziyatni bayon qiladi va jamoa bo'lib undan chiqish yo'li topiladi. Keyin kichik guruhlarda boshqa muammoli vaziyatlar o'rganiladi va taqdimot o'tkaziladi.
- 8) **FSMU usuli**. Talabalar o'z fikrini quyidagi tartibda ifodalash talab qilinadi: F - fikrini bayon qilish; S – fikriga sabab ko'rsatish; M – sababni asoslovchi misol keltirish; U - fikrini umumlashtirish.
- 9) «**Muloqot**» usuli. Kichik guruhlarda alohida mavzular o'rganiladi va turli materiallar (video, foto, sxema, ilmiy dalillar) tayyorlanadi. Keyin kichik guruhlar o'rtasida muloqot bo'lib o'tadi. O'qituvchi kichik guruhlarining fikrlarini maqsadli yo'naltirib boradi va oxirida o'z munosabatini bildiradi.

eksternat, masofaviy ta'lim. Oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etishga me'yoriy talablar. Oliy ta'lim muassasasida ta'limni tashkil etishning shakli - usullari.

9-mavzu: Oliy maktabda o'quv jarayoni. (2soat)

Didaktik (o'quv) jarayoni, o'qish motivlari, o'quv-biluv (bilim o'zlashtirish) faoliyati, o'quv-biluv faoliyatini boshqarish, boshqarish nazariyalari. O'quv jarayonining mohiyati, komponentlari. Talabani o'qish motivlari. Talabani o'quv-biluv faoliyati.

10-mavzu. O'quv-biluv faoliyatini boshqarish nazariyalari. (2soat)
Oliy ta'lim boshqaruviga oid nazariyalar. O'quv-biluv faoliyatini boshqarish nazariyalari.

11-mavzu: Ta'limning ilg'or texnologiyalari. (2soat)

Pedagogik texnologiya, ta'limning ilg'or texnologiyalari, masofaviy ta'lim, multimedia, faoliyatli yondashuv, interfaol usullar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, sinektika, ish o'yinlari.

12-mavzu. Ta'limning interfaol usullari. (2soat)

Masofaviy ta'lim, multimedia. Ta'limning interfaol usullari.

13-mavzu: Talabani mustaqil ta'lim olishi. (2soat)

Mustaqil ta'lim, mustaqil ishlarning turlari, shakllari, ma'ruza ustida ishlash (tinglash, yozib olish), amaliy ish, seminarlarga tayyorlanish, kitob va manbalar bilan ishlash, mustaqil ta'limni rejalashtirish. Mustaqil ta'lim olish malakasi zarurligi. Mustaqil ta'limning turlari. Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi.

14-mavzu: Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari. (2soat)

Ilmiy faoliyat, ilmiy tadqiqot ishi, ilmiy-pedagogik ish; ilmiy ishlar tizimi, ilmiy tadqiqot konsepsiyasi, faraziyasi; ilmiy ijod metodologiyasi va metodlari, bilishning matematik usullari, asoslash va inkor etish, ilmiy axborotlar to'plash. Oliy maktabda talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari tizimi.

15-mavzu. Tadqiqotchilik malakalarini egallash texnologiyasi. (2soat)

Malakaviy bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, iqtidorli talabalar bilan ishlash. Tadqiqotchilik malakalarini egallash texnologiyasi.

4.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, «Keys-stadi» texnologiyasi ishlatiladi, Keystar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Amaliy mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi. O'qituvchi darsga kirib tashkiliy ishlarni o'tkazadi, auditoriyani darsga tayyorgarligi yozish va o'chenish vositalarining mavjudligi hamda o'quvchilarning davomati aniqlanadi. Amaliy mashg'ulot darslarida savol-javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiradi.


Amaliy mashg'ulotda ko'proq talabalar guruhini bir nechta kichik guruhlarga ajratib o'qitishning aqliy hujum, bahs-munozara, suhbat metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar talabalarni mavzu yuzasidan ko'proq mustaqil fikr yuritishga, o'z fikrini bayon etishga undaydi. Darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, diqqatlarini jamlashga o'rgatadi. Bundan tashqari amaliy mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir talabaning faoliyatini tog'ri va xolisona baholashga erdishi zarur. Shuningdek, baholarni e'lon qilib faol o'quvchilarning familiyalarini aytib rag'batlantirishi va aksincha passiv, nutqi rivojlanmagan yoki uyatchan talabalarga yengil tanbeh berishi ham muhim ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulot darslarini dastur bo'yicha sifatli o'tilishini talabalar bilimining o'z vaqtida adolatli va xolisona baholanishini fandan ma'ruza olib boruvchi o'qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. Shuningdek amaliyot o'qituvchisi bilan dastur bajarilishi uchun amaliy darslarda nimalarga alohida e'tabor qaratilishi, ma'ruzada mavzularni qaysi qismlari kam yoki ko'proq yoritilgani va boshqa o'quv-uslubiy masalalarda maslahatlashib fikrlashib turishlari lozim.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, «Keys-stadi» texnologiyasi ishlatiladi, Keystar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.


Bu usul fikrni erkin bayon qilish uchun qo'llaniladi. Masalan, talaba o'tilgan mavzu bo'yicha klaster tuzishi mumkin. O'rtaqa kalit so'z, tarmoqlarga unga bog'liq boshqa atamalar yoziladi. Ular ham o'z navbatida tarmoqlarga ajratilishi mumkin.

Venn diagrammasi O'rganilayotgan ob'ektlarni taqqoslash, o'xshash va farqli jihatlarni topish, tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Diagrammadagi doirachalar alohida ob'ektni, kesishmalar esa ularning o'xshash va bog'liq jihatlarni bildiradi. Talabadan ob'ektlarning alohida (1-3), o'zaro bog'liq (4-6) va umumiy (7) jihatlarni yozma ifodalab berish talab etiladi.



4) SWOT-tahlil. Bu organayzer talabalarda tizimli fikrlash, taqqoslash, baholash, tahlil qilish, fikrni davom ettirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. SWOT atamasi inglizcha so'zlarning qisqartmasi hisoblanadi: Strengths – ob'ektning kuchli jihatlari; Weakness – kuchsiz jihatlari; Opportunities – tashqi imkoniyatlari; Threats – tashqi xavf-xatarlari. Talaba yangi qatordan S, W, O, T harflarini yozib yoniga ob'ektning mos sifatlarini yozib chiqadi.

5) “Baliq skeleti” sxemasi. Bu organayzer tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Baliq skeletining bosh qismiga – mavzu, yuqori qismiga – muammolar, pastki qismiga – tasdiqlovchi dalillar yoziladi.




6) Aqliy hujum usuli. Bu usul dars mavzusiga oid savolga javob topish maqsadida g'oyalarni jamlash va saralash uchun qo'llaniladi. Har bir talaba o'zining shaxsiy g'oyalarni ilgari suradi. Bosqichlari – muammoli vaziyat paydo qilish; yechimni topish uchun g'oya, fikr berish; yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosa qilish.

7) Esse. Bu mavzu bo'yicha cheklangan hajmda yoziladigan insho hisoblanadi. Esseda talaba o'quv material bo'yicha o'zining shaxsiy fikrini erkin ifoda etadi.

Interfaol o'qitish usullari (Activity)

Amaliy mashg'ulotlarda interfaol o'qitish usullari qo'llaniladi. Bu usullar talabalarda jamoada ishlash, kasbga oid mustaqil va tanqidiy fikrlash, mulohaza madaniyati va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Quyida fan xususiyatlariga xos ba'zi usullar bayon etilgan.

<p>Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: III.1. Amaliy mashg'ulot mavzulari</p> <p>1-mavzu: Oliy maktab pedagogikasiga kirish. (2soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> Oliy ta'limning maqsadi, oliy maktab pedagogikasining predmeti, ob'yekti, qonuniyatlari O'zbekiston davlati siyosatining asosiy prinsiplari, ikki bosqichli oliy ta'lim, bakalavriat, magistratura <p>2-mavzu: O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning maqsadi va vazifalari. (2soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> Ta'limning mazmuni, o'quv rejasi, o'quv fani, o'quv semestri, o'quv yili, o'quv fani dasturi. Atamalarining ma'nosi, oliy ta'limning asosiy vazifalari. Oliy ta'limning tashkiliy masalalari <p>3-mavzu: Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. (2soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> Oliy ta'lim, bakalavr, magistr. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, ta'lim dasturi, o'quv fanlari bloki, o'quv fani dasturi, malaka amaliyoti <p>4-mavzu: Oliy ta'lim muassasasi. (2soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> Oliy maktab, universitet, akademiya, institut, fakultet, kafedra, rektor, dekan, kafedra mudiri, ilmiy kengash, vasiylik kengashi Oliy ta'lim muassasasi haqida umumiy tushuncha. Oliy o'quv yurtining fakulteti <p>5-mavzu: Oliy ta'limning yo'nalishlari va mutaxassisliklari. (2soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> Oliy ta'limning yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori haqida umumiy tushuncha. Oliy ta'lim mutaxassislik 	
--	--

<p>5. V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: -ta'lim mashg'ulotlarida talabalar fan predmetiga oid bilimlarni o'zlashtirib borishlari yuzasidan olib boriladigan ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish va mustaqil ishlash metodikasi tufayli talabalar fandan mukammal bilim oladilar, pedagog kasbini egallash uchun jiddiy tayyorgarlikdan o'tadilar. -ta'lim mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar tavsiya qilingan adabiyot materiallarini qunt bilan o'rganib chiqishi, oliy ta'lim pedagogikasi muammolariga doir ma'ruza yoki referat tayyorlashi; amaliy topshiriqlarni bajarishi, rivojlanishi, yangilanish va modernizatsiya jarayonlari haqidagi bilimga; -talaba mavzuni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi: -darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rgana olish ko'nikmalariga; -tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish; -maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzular ustida ishlash; talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlarbo'limlari va mavzularni chuqur o'rganishi bildiradi malakalariga ega bo'ladi.</p>	<p>6. V.1 Ta'lim texnologiyalari va metodlari.</p> <p>Grafik organayzerlar</p> <p>Grafik organayzerlar ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida talabalar o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishlari uchun joriy etiladi. Quyida ularning ba'zilar keltirilgan.</p> <p>1) BBB jadvali. Barcha ma'ruza darslarida qo'llaniladi. BBB usuli ("bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim") orqali talaba o'zini kuzatishi, o'qituvchi esa darsga baho berishi mumkin. Talaba dars boshida mavzu bo'yicha nimani bilishini (B1) va yana nimalarni bilishni xohlashini (B2) daftariga yozib qo'yadi. Dars so'ngida nimalarni bilib olganligini (B3) qayd qilib qo'yadi.</p> <p>2) Insert usuli. Bu usul matnni o'zlashtirishda qo'llaniladi. Talaba sahifa hoshiyasiga o'z belgilarini qo'yib ularga munosabat bildiradi. Masalan: "v" – zarur, "–" – xato; "+", "!" – yangi, "!" – e'tibor qiling; "x" – ortiqcha; "*" – ko'chirish kerak; "?" – tushunarsiz va h.k.</p> <p>3) Klaster sxemasi</p> 
---	---

6-mavzu: Oliy maktabning talabasi va professor- o'qituvchisi. (2soat)

Reja:

1. O'quv jarayoni, talaba, professor, dotsent, ilmiy daraja, ilmiy unvon
2. Oliy maktabda ta'limning maqsadi, xususiyatlari
3. Oliy o'quv yurtining talabasi

7-mavzu: Oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etish (2soat)

Reja:

1. Oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etish
2. Oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etish turlari

8-mavzu: Oliy ta'lim muassasida ta'limni tashkil etishning shakl - usullari. (2soat)

Reja:

1. Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, maslahat, kollokvium, mustaqil ish, malakaviy amaliyot, kurs ishi (loyihasi), malakaviy bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, kunduzgi ta'lim, sirtqi ta'lim, eksternat, masofaviy ta'lim.
2. Oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etishga me'yoriy talablar.

9-mavzu: Oliy maktabda o'quv jarayoni. (2soat)

Reja:

1. Didaktik (o'quv) jarayoni, o'qish motivlari, o'quv-biluv (bilim o'zlashtirish) faoliyati
2. O'quv jarayonining mohiyati, komponentlari
3. Talabanning o'qish motivlari. Talabanning o'quv-biluv faoliyati.

10-mavzu: O'quv- biluv faoliyatini boshqarish nazariyalari. (2soat)

Reja:

1. Oliy ta'lim boshqaruviga oid nazariyalar
2. O'quv- biluv faoliyatini boshqarish nazariyalari.

11-mavzu: Ta'limning ilg'or texnologiyalari. (2soat)

Reja:

1. Pedagogik texnologiya, ta'limning ilg'or texnologiyalari
2. Interfaol usullar, kichik guruhlarda ishlash.
3. Aqliy hujum, sinektika, ish o'yinlari.

12-mavzu: Ta'limning interfaol usullari. (2soat)

Reja:

1. Masofaviy ta'lim, multimedia
2. Ta'limning interfaol usullari.

13-mavzu: Talabanning mustaqil ta'lim olishi. (2soat)

Reja:

1. Talabanning mustaqil ta'lim olishini tashkil etish
2. Mustaqil ta'lim olish shakllari

14-mavzu: Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi. (2soat)

Reja:

1. Mustaqil ta'lim, mustaqil ishlarning turlari, shakllari, ma'ruza ustida ishlash
2. Mustaqil ta'lim olish malakasi zarurligi.

15-mavzu: Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari. (2soat)

Reja:

1. Ilmiy faoliyat, ilmiy tadqiqot ishi, ilmiy-pedagogik ish
2. Ilmiy ijod metodologiyasi va metodlari
3. Oliy maktabda talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari tizimi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Oliy maktab pedagogikasiga kirish
2. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning maqsadi va vazifalari
3. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti
4. Oliy ta'lim muassasasi
5. Oliy maktabning talabasi va professor- o'qituvchisi
6. Oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etish
7. Oliy ta'lim muassasida ta'limni tashkil etishning shakllari
8. Oliy maktabda o'quv jarayoni
9. Ta'limning ilg'or texnologiyalari va interfaol usullari
10. Talabanning mustaqil ta'lim olishi